

O'ZBEK ROMANLARI TARJIMALARI TADQIQINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna

O'qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

nargizafuzaylova89@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17539022>

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o'zbek romanlarining tarjima xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga qaratilgan. Tarjima nazariyasi, adabiyotshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvistika sohalaridagi asosiy yondashuvlar tahlil qilinadi. O'zbek romanlarining tarjimalari orqali milliy o'zlikni saqlash, madaniy merosni targ'ib qilish va adabiy aloqalarni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqiladi. Tarjima strategiyalari, uslubiy xususiyatlar va madaniy moslashuv muammolari aniqlanadi va baholanadi. Tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *tarjima, o'zbek romani, adabiyot, madaniyatlararo kommunikatsiya, milliy o'zlik, tarjima nazariyasi, madaniy moslashuv, lingvistika, uslub, roman.*

Abstract: This research focuses on the scientific and theoretical foundations of studying translations of Uzbek novels. It examines key approaches in translation theory, literary studies, intercultural communication, and linguistics. The study explores the preservation of national identity, promotion of cultural heritage, and strengthening of literary ties through translations of Uzbek novels. Translation strategies, stylistic features, and cultural adaptation issues are identified and evaluated. Challenges arising in the translation process and ways to overcome them are proposed. The research aims to provide a comprehensive framework for analyzing the complexities and nuances of translating Uzbek literary works.

Keywords: *translation, Uzbek novel, literature, intercultural communication, national identity, translation theory, cultural adaptation, linguistics, style, novel.*

Аннотация: Данное исследование посвящено научно-теоретическим основам изучения переводов узбекских романов. Анализируются ключевые подходы в теории перевода, литературоведении, межкультурной коммуникации и лингвистике. Рассматриваются вопросы сохранения национальной идентичности, продвижения культурного наследия и укрепления литературных связей через переводы узбекских романов. Выявляются и оцениваются стратегии перевода, стилистические особенности и проблемы культурной адаптации. Предлагаются пути преодоления трудностей, возникающих в процессе перевода. Исследование направлено на создание комплексной основы для анализа сложностей и нюансов перевода узбекских литературных произведений.

Ключевые слова: *перевод, узбекский роман, литература, межкультурная коммуникация, национальная идентичность, теория перевода, культурная адаптация, лингвистика, стиль, роман.*

Kirish: O'zbek romanlari tarjimalarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan integratsiyalashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayoni faqatgina bir tildagi matnni boshqa tilga o'girishdan iborat emas, balki u madaniyatlararo muloqot, milliy o'zlikni saqlash va adabiy aloqalarni mustahkamlash kabi murakkab vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot tarjima nazariyasi, adabiyotshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va lingvistika sohalaridagi asosiy yondashuvlarni tahlil qilish orqali o'zbek

romanlari tarjimalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tarjima strategiyalari, uslubiy xususiyatlar va madaniy moslashuv muammolari ilmiy jihatdan baholanadi.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi. Tadqiqot o'zbek romanlarining jahon miqyosida tanilishiga va o'zbek adabiyotining rivojlanishiga hissa qo'shishni maqsad qiladi. Shuningdek, o'zbek romanchiligini global adabiy makonda to'g'ri va mukammal aks ettirishning nazariy asoslarini yaratishga intiladi.

Asosiy qism: Tarjima jarayoni bu-bir tildagi ma'lumotning ma'nosini boshqa tilga yetkazish jarayonidir. Tarjimaning asosiy maqsadi ma'lumotning asl ma'nosini, uslubini va hissiy ta'sirini imkon qadar to'liq va aniq saqlab qolishdir.

Tarjima tarixiga nazar soladigan bo'lsak, tarjima nazariyasi haqidagi dastlabki fikrlarni eramizgacha bo'lgan birinchi asrda Tulliy Sitseron (106-43) asarlarida yozib qoldirgan. Uning fikricha, "tarjimada shaklni emas, mazmunni yetkazish kerak. So'zma-so'z tarjima tarjimonning o'zligidan darak beradi"¹ Tarjimaning bir nechta turlari mavjud bo'lib, men hozir adabiy tarjima haqida to'xtalmoqchiman.

Asarlar tarjimasi deganda adabiyot, ilm-fan, san'at sohalariga oid asarlarni bir tildan boshqa tilga o'girishdir. Asarlar tarjimasi xalqlar va elatlar bir-birlarining san'atini, adabiyotini, madaniyatini tushunishi va xabardor bo'lishi uchun juda ham muhim hisoblanadi. Asarlar tarjimasi orqali biz boshqa xalqlarning tarixi, hayoti va urf-odatlariga haqida ma'lumot olishimiz mumkin va ularning dunyoqarashlari haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Shuningdek, asar tarjimasining bir nechta muhim jihatlari bor.

Birinchi muhim jihat bu- millatlararo muloqotdir. Tarjima turli millat vakillarini birlashtiradi va ularning o'zaro fikr almashinuviga va o'z sohalarida bilimlarini baham ko'rishlariga imkon beradi. Yana bir muhim jihatlaridan biri bu - bilim tarqatishdir. Tarjimonlar ilm-fanga oid yangiliklarni bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish orqali boshqalarga ilm-ma'rifat ulashadilar.

Adabiyotni boyitish- bu tarjimaning yana bir muhim jihatlaridan hisoblanadi. O'quvchi tarjima qilingan boshqa xalqlarning adabiyotlari orqali o'z

dunyoqarashlarini boyitishlari va yangi uslublar va janrlar bilan tanishadi.

Tarjima qilish jarayonining bir nechta murakkabliklari ham mavjud bo'lib, tarjimon nafaqat tilni mukammal bilishi, balki o'sha xalqning madaniyatini, urf-odatini ham teran bilishi kerak. Shundagina asarning asl mazmunini va ruhiy holatini saqlab qolish mumkin.

Shularni inobatga olgan holda, tarjima asarlar millatlarni, xalqlarni bir-biriga bog'lovchi, ularning madaniyatini va urf-odatlaridan darak beradi deya ayta olamiz. Tarjima tarixiga nazar soladigan bo'lsak, "birinchi bo'lib yozma tarjimani qadimgi Rim shoiri, dramaturgi va tarjimoni Liviy Andronik (280-250) qilgan. U Homerning mashhur "Odisseya" asarini yunon tilidan lotin tiliga o'giran"² Shu kungacha jahon adabiyotining bir nechta durdona asarlari turli xil tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Bular sirasiga mashhur ingliz yozuvchilarining noyob asarlarini kiritishimiz mumkin. Masalan, ingliz adabiyotining qiroli Shekspirning "Hamlet", "Otello", Daniyel Defoning "Robinzon Kruzo", Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari", Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari", Jeyn Ostinning "Andisha va g'urur", Agata Kristining "O'nta negr bolasi", Charlz Dikkinsning "Oliver Twist", Gapriyel Garsia Markizning "Yolg'izlikning yuz yili", Paulo Kaelxoning "Alkimyogar" J.K. Rovlingning "Garri Potter" kabi mashhur asarlar

¹ <http://linguisticus.com/ru>

² Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.-Toshkent: "Akademnashr",2020.

o'zbek tiliga tarjima qilingan va o'zbek kitobxonlarining qalbidan chuqur joy olgan. Bunday asarlarga yuzlab va minglab misollar keltirish mumkin va bu yerda ayrimlarini keltirib o'tdim.

Shuningdek, o'zbek adabiyotining nodir asarlari ham dunyoning bir necha tillariga tarjima qilingan va bu orqali boshqa millat vakillari ham o'zbek durdona asarlarini o'qish baxtiga muvassar bo'lganlar. Bularga misol qilib bir nechta asarlarini keltirishimiz mumkin. O'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi va o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"(1926) va "Mehrobdan chayon" (1928) asarlari ingliz (By gone days, The scorpion from the altar), rus (Мнѹвшие дни), fransuz (Les Jours Passes), nemis (Vergangene Tage), turk(O'tmis Gunler) tillariga mahoratli tarjimonlar tomonidan tarjima qilingan.

Jadid adabiyotining yana bir yorqin namoyandasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li (Cho'lpon) qalamiga mansub "Kecha va kunduz"(1936) asari ham ingliz (Night and day), rus (Ночь и день), turk (Gece ve Gunduz) tillariga tarjima qilingan. Oybekning "Navoiy" (1945) asari rus, qozoq, tojik tillariga, Asqad Muxtorning "O'tror" asari rus, qirg'iz tillariga, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar"(1979) asari ingliz, rus, turkman tillariga, Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom"(1980) asari rus va turk tillariga, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Qora marvarid"(2017) asari ingliz va koreys tillariga mahoratli tarjimonlar va nufuzli nashriyotlar tomonidan tarjima qilingan. Tarjima orqali o'zbek adabiyotining noyob va nodir asarlari jahon kitobxonlariga yetib borgan va ular tomonidan juda ham iliq kutib olingan.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek romanlari tarjimalarini tadqiq etish nafaqat lingvistik, balki madaniy va adabiy hodisa sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Tarjima nazariyasining zamonaviy tendentsiyalari, adabiyotshunoslikdagi yangi yondashuvlar va madaniyatlararo muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'zbek romanlari tarjimalarining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti bilan integratsiyalashuviga yordam beradi. Tarjima strategiyalari, uslubiy xususiyatlar va madaniy moslashuv muammolarini hal qilish o'zbek adabiyotining jahon miqyosida to'g'ri va mukammal aks etishiga imkon yaratadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari kelajakda o'zbek romanlarini tarjima qilishda uslubiy qo'llanma sifatida xizmat qilishi va o'zbek adabiyotini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Bu o'z navbatida o'zbek adabiyotining jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini oshiradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Salomov G'. baddiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari.-Toshkent: 1960
2. Xalliyeva G. Qiyosiy adabiyotshunoslik.-Toshkent: "Akademnashr",2020.
3. Абдуллаева, М. Р. *Инглиз тилидан узбек тилига таржима яраши ва узига хос хусусиятда. Innovation, integration va ta'lim bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali*, 2 (2),(2021). 297-306.
4. Xolbekov M.N. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi.-Toshkent:"Navro'z" nashriyoti, 2015.
5. Nargiza Abdusamatovna Fuzaylova. (2024). ANALYSIS OF THE EXPRESSION AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF NEOLOGISMS IN TRANSLATION. Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi,21(2),175–180.Retrieved from<http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109>
6. Rakhmonkulovna, A. M. (2021). About the process of translation from English to Uzbek and its essence. *INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND*

EDUCATION, 2(2), 297-306.

7. Nasretdinova, M. N., Saydikramova, U. X., Saydikramova, Fuzaylova, N. A., Fayziyeva, A. K., & Jabborova, Z. T. (2024). Analysis of Stylistic Aspects of the Appearance of Ellipsis in Speech. *South Eastern European Journal of Public Health*, 1676–1680. <https://doi.org/10.70135/seejph.vi.2184>
8. https://en.wikipedia.org/wiki/Machine_learning
9. <http://linguisticus.com/ru>